

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 oktyabr holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **994 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **1,1 f.p. oshgan**.
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1138 taga oshgan**.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida Xorazm viloyatida 1775 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 445 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tuga-tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 36,1 % ga kamaygan hamda ularning soni 637 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 994 ta (7,2 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 14668 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (23,8 %), Urganch (10,4%), Xiva (9,5 %) tumanlarida va Xiva shahrida (8,9 %) kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018-yilning 1-oktyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	15420	100	14668	100
Urganch sh.	3804	24,6	3505	23,9
Xiva sh.	1366	8,9	1317	9,0
tumanlar:				
Bog'ot	761	4,9	740	5,0
Gurlan	908	5,9	873	6,0
Qo'shko'pir	899	5,8	872	5,9
Urganch	1583	10,3	1536	10,5
Xazorasp	1078	7,0	1046	7,1
Xonqa	1153	7,5	1125	7,7
Xiva	1512	9,8	1404	9,6
Shovot	765	5,0	724	4,9
Yangiariq	1014	6,6	973	6,6
Yangibozor	577	3,7	553	3,8



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,2 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 4,8 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 0,6 % o'sgan.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 16,1 % sanoatda, 10,1 % qurulishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 28,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da**




***Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi
(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda***



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 1775 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 33,4 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (433 ta), Urganch (217 ta), Xiva shahrida (156 ta) va Xonqa tumanlarida (143 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (65 ta), Gurlan (84 ta) hamda Bog'ot (94 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdo (416 ta), sanoat (339 ta), qishloq va o'rmon xo'jaligi (178 ta) va qurilish(176 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (21 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (38 ta) hamda tashish va saqlashda (60 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Axborot va aloqa-21



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish-38



Tashish va saqlash-60



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar-152



Qurilish-176



Qishloq va o'rmon xo'jaligi-178



Sanoat-339



Boshqaturlar-395





Savdo-416

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017-yil yanvar-sentyabr.	2018-yil yanvar-sentyabr.
Jami:	1330	1775
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	153	178
Sanoat	321	339
Qurilish	126	176
Savdo	286	416
Tashish va saqlash	57	60
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	110	152
Axborot va aloqa	25	21
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	46	38
Boshqa turlari	206	395

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiyl soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2018-yil 1-oktyabr holatiga 11739 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 4079 ta, oilaviy korxonalar – 1151 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 6215 ta va boshqalar 294 tani tashkil etadi.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018-yil 1-oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 66 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 34,6 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 52 tasi qo'shma korxonalar, 14 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch shahar 19 ta (28,8 %), Shovot tumani 11 ta (16,7 %) va Xiva shahar 6 ta (9,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa 1 ta (1,5 %), Yangibozor 1 ta (1,5 %), Gurlan 2 ta (3,0 %) va Xazorasp 3 ta (4,5 %) tumanlar hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018-yil 1-oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 42 ta (63,6 %), savdoda 10 ta (15,2 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda esa 3 ta (4,5 %) va qurilishda 3 ta (4,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,5 %), tashish va saqlashda 2 ta (3,0 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta (3,0 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, tashish va saqlash hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'gri keladi. Shuningdek axborot va aloqa hamda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud emas.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini



2018-yilning yanvar-sentyabr oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 16 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7 taga ko`paygan yoki 77,7 % o'sgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta va 10 ta boshqa mamlakatlar ishtirokida yangi korxonalar royxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-sentyabr oylarida) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 7 ta, savdoda 2 ta, qurilishda 1 ta, sog'lqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 1 ta, qishloq va o'rmon xo'jaligi 1 ta, tashish va saqlash 1ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018-yil 1-oktyabr holatiga viloyatimzda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11666 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017-yil 1-oktyabr holatiga qaraganda 6,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2836 tasi (24,3 %) Urganch shahriga, 1278 tasi (10,9 %) Urganch, 1204 tasi (10,5 %) Xiva tumanlariga hamda 1197 tasi (10,4 %) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11666 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3481 tasi (29,8 %) – savdoda, 2339 tasi (20,0 %) - sanoatda, 1467 tasi (12,6 %) - qurilishda, 1111 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 837tasi (7,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 565 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 260 tasi (2,2 %) - sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 201 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1405 tasi (12,2 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018-yil yanvar-sentyabr oylarida 1510 kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 254 ta korxonaga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahrida (388 ta), Urganch tumaniда (191 ta), Xiva shahrida (129 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (48 ta), Yangiariq (78 ta) hamda Gurlan (78 ta) tumانларida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (415 ta), sanoatda (339 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (177 ta) va qurilishda (176 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (21 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (37 ta), tashish va saqlashda (60 ta) hamda yashash va ovqatlanish (151 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2018-yilning 1-oktyabr holatiga 1198 tani tashkil etib, ulardan 1151 tasi yoki 96,1 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **46,6** % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 27,8 % yoki 320 tasi sanoat, 27,8 % yoki 320 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 20,9 % yoki 240 tasi savdo, 9,6 % yoki 111 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,6 % yoki 18 tasi qurilish, 1,0 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 12 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,7 % yoki 8 tasi tashish va saqlash hamda 9,6 % yoki 111 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'lumi

Nashr uchun mas'ul: **D.Kurbanova**

(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat

registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida

tayyorlangan